INVESTITSIYA JALB QILISHNING HUDUDIIY MEXANIZMLARI VA ULARNING IQTISODIIY MAZMUNI.....	936
Shamsiyeva Ruxsora Nasirovna	
HUDUDLARNING TURISTIK SALOHIIYATINI OSHIRISHDA TURISTIK ZONALARNING AHAMIYATI	940
Umarova Mahliyo Yaxshiboy qizi	
HUDUD OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI SANOATI ISHLAB CHIQARISH KO'RSATKICHLARI SAMARADORLIGINING EKONOMETRIK VA STATISTIK TAHLILI.....	945
Xursanov Sherzod Ulaboyevich	
YUK TASHUVLARIDA LOGISTIK PROVAYDERLAR FAOLIYATINING NAZARIY-USLUBIIY ASOSLARI	951
Mannapova Feruza Faxriddin qizi	



MAMLAKAT BANKLARI TOMONIDAN ALOQA SOHASINI MOLIYALASHTIRISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	956
Mirzaraximova Aziza Azimdjanoyna	
IQTISODIYOTDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLARNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI RAQOBATCHILIK MUHITINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	963
Maxmudova Ferangis Raxmatillayevna	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOT TARAQQIYOTINING HOLATI VA USTUVOR MAQSADLI KO'RSATKICHLARI	968
Saidova Madinaxon Hoshimjon qizi	
FERMER XO'JALIKLARINING O'ZBEKISTON AGRAR SEKTORIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	973
Islamova Dilnoza Isamidinovna	
ZIYORAT TURIZMINING MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI.....	978
Uzaqov Jamshid Norboyevich	
TIJORAT BANKLARINING EMISSION OPERATSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	983
Shaymanov Mexriddin Ibragimovich	
ISLOM MOLIYASIDA MAJBURIYAT VA OMONAT MEXANIZMLARI: RAHN, VADIYA VA HAVALA.....	987
Sadikova Ra'no Abdullaevna	
FIRIBGARLIK BILAN BOG'LIQ AUDITORLIK TEKSHIRUVI RISKLARINI KAMAYTIRISH MASALALARI	991
Sirojiddinov Ikromiddin Qutbiddinovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ И ОЦЕНКА ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ UZAUTO MOTORS.....	996
Шарипов К.А., Зайнутдинова У.Дж.	
XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA BANDLIK BILAN TA'MINLASHGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR VA MUAMMOLAR TADQIQI.....	1005
Mirzayev Qulmamat Djonuzokovich, Saparov Murod Irgashovich	
YO'LOVCHI TASHISH XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	1010
Alisher Kurambayev	
SUG'URTA XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA TAKAFUL SUG'URTASINING O'RNI VA IMKONIYATLARI.....	1014
Sattorov Ixtiyor Ochilovich, Karimov Shohruh Yo'ldoshali o'g'li	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISHNING JORIY HOLATI TAHLILI.....	1020
Valikulov Sherzod Zaynitdinovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA MARKETPLEYSLARNI SHAKLLANTIRISH: INVESTITSİYALAR, XARAJATLAR VA FOYDA.....	1029
Axmedova Dilshoda Xayrulla qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MARKETING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI.....	1033
Maxmudov Tohirjon Olimjonovich, Muminova Shahlo Madaminjon qizi	
OLIY TA'LIMDA GENDER TENGLIKNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	1039
Xaydarova Sayyora	
ANALYZING THE COMPETITIVE ADVANTAGES OF SOUTH KOREA IN GLOBAL MICE TOURISM: HISTORICAL AND CULTURAL DIMENSIONS.....	1043
Ortikova Sabohat, Gulomova Mukhlisa, Ochilova Hilola Farmonovna	
MEHMONXONA BIZNESIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI XIZMAT KO'RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA)	1050
Usmanova Gulida Valiyevna	
ETHICAL ASPECTS OF ECOTOURISM: BALANCING SUSTAINABLE DEVELOPMENT AND MORAL RESPONSIBILITY.....	1055
Gulbakhor Sattarovna Abdullakhanova	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA INVESTITSIYA FAOLLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	1062
Sobirov Abdurasul Abdugafarovich	



KADRLAR BOSHQARUVIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	1068
Urazov Sadulla Shodiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY JINOYATLARNING OLDINI OLISHDA KOMPLAENS-NAZORATNING ROLI.....	1074
Zokirov Ismoiljon Ibroximovich	
AGROSERVIS SOHASINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH YO'LLARI	1078
Pardayev Mamayunus Qarshibayevich, Feruz Nematullayevich Abilov	
KO'MIR UCHUVCHI KULI ASOSIDAGI FLY ASH BETON VA GEOPOLIMER MATERIALLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN IQTISODIY VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH	1083
Muradov Botir Xayat	
КРЕАТИВНАЯ ЭКОНОМИКА В КОНТЕКСТЕ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ПРЕДПОСЫЛКИ В УЗБЕКИСТАНЕ	1091
Рахимова Манзура Хамид кизи	
DUE DILIGENCE IN AUDITING AS A FACTOR ECONOMIC EFFICIENCY IN THE AGRICULTURAL SECTOR.....	1098
Sidikov Dilmurod	
MAJBURIYATLAR HISOBINI MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	1102
Ergasheva Vasila Abdumajitovna	
ИННОВАЦИОННЫЕ МАРКЕТИНГОВЫЕ СТРАТЕГИИ И ПРОЦЕССЫ ЦИФРОВИЗАЦИИ БИЗНЕСА В УЗБЕКИСТАНЕ	1106
Рахимова Тамила Баходур кизи	
O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM EKSPORT XIZMATLARI MOLIYAVIY NATIJADORLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI.....	1113
Abdusattarova Dildora Bohodirovna	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI DAVLAT TOMONIDAN MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH BORASIDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA VA UNDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	1120
Djurayeva Lola Abdugabbarovna	
HUDUDLARDA AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDA DAVLAT BUDJETIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1125
Egamnazarova Gulnoza Xolmurod qizi	
O'ZBEKISTON ISLOHOTLARI ISTIQBOLIDA BARQAROR RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI HAMDA ESG INDIKATORLARINI JORIY ETISH	1129
Mirzaaxmedova Nodira Asqarali qizi, Tursunxodjayeva Shirin Zafar qizi	



O'ZBEKISTON ISLOHOTLARI ISTIQBOLIDA BARQAROR RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI HAMDA ESG INDIKATORLARINI JORIY ETISH

Mirzaaxmedova Nodira Asqarali qizi

Yangi O'zbekiston universiteti

Stajyor-tadqiqotchisi

Email: nmirzaakhmedova22@gmail.com

Ilmiy rahbar:

Tursunxodjayeva Shirin Zafar qizi

TDIU dotsenti, Iqtisodiyot fanlari doktori DSc.

Annotatsiya. Mazkur maqolada barqaror rivojlanish maqsadlari, ESG joriy etilishi istiqbollari haqida olib borilgan ilmiy izlanishlar natijalari keltirilgan. Barqaror rivojlanish maqsadlari tamoyillarining kelib chiqishi, davlatlar rivojlanishiga ta'siri, islohotlarni amalga oshirish jarayonlari ko'rsatilgan. Barqaror rivojlanish davlatlarning korporativ barqarorlikni oshirishi, balki uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlashi mumkinligini ko'rsatadi. Shuningdek, O'zbekistondagi barqaror rivojlanish maqsadlari va ESG amaliyotlarining rivojlanish jarayoni hamda istiqbollari ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: barqaror rivojlanish, ESG, atrof-muhit, boshqaruv, ijtimoiy, iqtisodiyot, yashil iqtisodiyot, indikatorlar, yashil siyosat, barqaror rivojlanish maqsadlari, ESG menejment, samaradorlik.

Abstract. This article presents the results of scientific research on sustainable development goals and the prospects for ESG implementation. It examines the origins of sustainable development principles, their impact on national development, and the processes of implementing related reforms. The study demonstrates that sustainable development contributes not only to strengthening corporate sustainability but also to ensuring long-term economic growth. In addition, the paper highlights the development process and future prospects of sustainable development goals and ESG practices in Uzbekistan.

Key words: sustainable development, ESG, environment, governance, social, economy, green economy, indicators, green policy, sustainable development goals, ESG management, efficiency.

Аннотация. В данной статье представлены результаты научного исследования перспектив реализации целей устойчивого развития и ESG-факторов. Показаны истоки принципов целей устойчивого развития, их влияние на развитие стран и процессы осуществления реформ. Устойчивое развитие показывает, что страны могут повышать корпоративную устойчивость, а также обеспечивать долгосрочный экономический рост. Также освещены процесс развития и перспективы целей устойчивого развития и ESG-практик в Узбекистане.

Ключевые слова: устойчивое развитие, ESG, окружающая среда, управление, социальная сфера, экономика, зеленая экономика, показатели, зеленая политика, цели устойчивого развития.

KIRISH

Barqaror rivojlanish maqsadlari farovonlik, adolat va insonning tabiat bilan uyg'unligini ta'minlash yo'lida davlatlarning sa'y-harakatlarini birlashtirib, xalqaro hamkorlikning universal asosi bo'lib xizmat qiladi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha mo'ljallangan Barqaror rivojlanish kun tartibi iqtisodiy o'sish, ijtimoiy adolat va atrof-muhit muhofazasi bir-birini to'ldiruvchi va uzviy bog'liq elementlar sifatida qaraladigan taraqqiyotning yangi modeliga asos soldi.

O'zbekiston Respublikasi "O'zbekiston-2030" strategiyasida belgilangan Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasidagi milliy ustuvor yo'nalishlarni faol amalga oshirmoqda. Kambag'allikni qisqartirish, bandlik darajasini oshirish, ta'lim va tibbiyot sifatini yaxshilash, "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish, raqamli transformatsiyani ilgari surish vazifalari diqqat markazida turibdi. Shu bilan birga, statistik kuzatuvlar tizimi mustahkamlanmoqda, bu



esa har bir maqsad bo'yicha erishilgan natijalar monitoringini ta'minlaydi, shuningdek, yanada samarali siyosiy va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun asos yaratadi [1].

Barqaror rivojlanish deganda kelajak avlodlarning o'z ehtiyojlarini qondirish qobiliyatiga ziyon yetkazmagan holda hozirgi avlodning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan insoniyat taraqqiyotining samarali yo'nalishi tushuniladi. Maqsad – yashash sharoitlari va resurslar inson ehtiyojlarini qondirgan holda, sayyoramizning yaxlitligini xavf ostiga qo'ymasdan jamiyat yaratishdir. Iqtisodiyot, atrof-muhit va ijtimoiy farovonlik ehtiyojlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash barqaror rivojlanishning asosiy maqsadi hisoblanadi. 1987-yildagi Brundtland hisoboti barqaror rivojlanish tushunchasining keng tarqalishiga hissa qo'shdi.

Barqaror rivojlanish tushunchasi me'yoriy konsepsiya hisoblangan barqarorlik g'oyasi bilan chambarchas bog'liqdir. UNESCO ikkala tushuncha o'rtasidagi farqni quyidagicha tushuntirgan: "Barqarorlik ko'pincha uzoq muddatli maqsad sifatida qaraladi (ya'ni, yanada barqaror dunyo), barqaror rivojlanish esa shu maqsadga erishish uchun amalga oshiriladigan turli jarayonlar va yo'llarni ifodalaydi" [7].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

G.V. Kznetsovaning qarashlariga ko'ra, tarixan barqaror rivojlanish konsepsiyasi 1980-yillarga borib taqaladi, o'shanda ijtimoiy mas'uliyatli investitsiyalar (SRI) va barqaror rivojlanish mavzulari tobora kuchayib borgan. Yirik G'arb korporatsiyalari va banklari ushbu yangi konsepsiyani o'zlarining biznes modellari integratsiya qilish tendensiyasini belgilab berishgan, keyinchalik u ESG modeli sifatida tanilgan. Ushbu model Atrof-muhit (E), Ijtimoiy (S) va Boshqaruv (G) (ESG) tamoyillariga asoslangan bo'lib, u uchta sohada: ekologiya, ijtimoiy rivojlanish va korporativ boshqaruvda subyektlarni baholashni o'z ichiga oladi [7].

1992-yildagi Rio-de-Janeyroda o'tkazilgan Yer sammitidan boshlangan Rio jarayoni barqaror rivojlanish tushunchasini xalqaro darajaga olib chiqdi. Barqaror rivojlanish – bu barqaror rivojlanish maqsadlarining asosiy g'oyasi hisoblanadi.

2030-yilga mo'ljallangan global maqsadlar 2015-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan. Maqsadlar qashshoqlik, iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning yo'qolishi va tinchlik kabi global muammolarni hal qilishga qaratilgan [4].

Barqaror rivojlanish — bu kelajak avlodlarning o'z ehtiyojlarini qondirish qobiliyatiga ziyon yetkazmagan holda, hozirgi avlodning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan insoniyat taraqqiyotining samarali yo'nalishidir. U o'z ichiga ikkita asosiy tushunchani qamrab oladi:

1. "Ehtiyojlar" tushunchasi, ayniqsa, dunyo kambag'allarining asosiy ehtiyojlariga eng yuqori darajadagi e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan masala;

2. Texnologiya va ijtimoiy tuzilmaning mavjud holati atrof-muhitning hozirgi va kelajak ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlariga qo'yadigan cheklovlar tushunchasi.

Barqaror rivojlanish uchun eng keng qamrovli global boshqaruv tizimi 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish kun tartibi hisoblanib, uning 17 ta Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) mavjud. Kambag'allikni kamaytirish, atrof-muhitni himoya qilish, inson farovonligi va tinchlik shular jumlasidandir.

Barqaror rivojlanish 3 ta asosiy ustuni quyidagilar (1-rasm):



1-rasm. Barqaror rivojlanishning asosiy ustunlari¹

1 Muallif tomonidan tayyorlandi.



Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM) bu Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 2015-yilda 2030-yilgacha bo'lgan Barqaror rivojlanish dasturi doirasida belgilangan 17 ta global maqsadlar to'plamidir. Ushbu maqsadlar "hech kimni ortda qoldirmaslik" bosh tamoyili asosida kambag'allikka barham berish, ekologik barqarorlik, ijtimoiy tenglik va iqtisodiy o'sish kabi o'zaro bog'liq global muammolarning keng doirasini hal qilishga qaratilgan hisoblanadi. BRMlar rivojlanish darajasidan qat'i nazar, barcha mamlakatlarga taalluqli bo'lib, sayyoramizda tinchlik, farovonlik va salomatlikni ta'minlashga qaratilgan.

Rus olimlari E.A. Bessonova hamda K.I. Svejetsentsevalarning ilmiy nuqtayi nazarlariga ko'ra, davlat boshqaruvi nuqtayi nazaridan ESG strategiyasini amalga oshirish davlatlarga barqaror va mas'uliyatli biznes muhitini shakllantirishda faol ishtirok etish imkonini beradi, bu esa oxir-oqibat barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga va jamiyat farovonligiga hissa qo'shadi. ESG tamoyillarini amalga oshiruvchi davlat idoralari atrof-muhit holati, ijtimoiy mas'uliyat va boshqaruv tamoyillarini takomillashtirish bilan bog'liq turli boshqaruv vazifalariga duch keladi. Ushbu boshqaruv vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish davlat idoralariga iqtisodiyot, jamiyat va atrof-muhitni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratishga imkon beradi, bu esa umuman davlat ESG strategiyasining maqsadlariga erishishga o'z hissasini qo'shadi [8].

ESG ilk bor 2000-yillardan boshlab qo'llana boshlandi. Biroq ushbu standartlardan oldin tarqoq holda foydalanib kelingan. Rasmiy ravishda Birlashgan Millatlar Tashkiloti chiqargan hisobotda ESG atamasi qo'llanilgan. Muvaffaqiyatli investitsiyalar fuqarolik jamiyati va ekologik barqaror iqtisodiyotga bog'liq. Shuningdek, uzoq muddatli istiqbolda investitsiya bozorlari aniq shaxsiy manfaatlarga asoslanganidan ko'ra atrof-muhit va ijtimoiy ta'sirlarni yaxshiroq boshqarishga investitsiyalar kiritish jahon hamjamiyatining barqaror rivojlanishining asosi hisoblanadi. Investitsiyalarni ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) omillari asosida kiritish pirovard natijaga hamda barqarorlikka ijobiy hissa qo'shadi [4].

ESG — bu ijtimoiy ongli investorlar investitsiyalarni tanlashda foydalanadigan ekologik, ijtimoiy va boshqaruv standartlarini anglatuvchi qisqartma so'z hisoblanadi. Ushbu standartlar asosida davlat kompaniyalari va xususiy korxonalar atrof-muhitga, korxonalarda ishlayotgan ishchilarga bo'lgan munosabatlari qanday darajada ekanligini hamda boshqaruv va korporativ boshqaruvning yuqori standartlarga javob berishini aniqlashdan iborat [2].

ESG — "Environmental" (atrof-muhit), "Social" (Ijtimoiy mas'uliyat) va "Governance" (Korporativ boshqaruv) so'zlaridan olingan bo'lib, kompaniyalar faoliyatining ekologik himoya, ijtimoiy sharoitlarni yaxshilash, xodimlar va mijozlarga halol munosabatda bo'lish hamda to'g'ri korporativ boshqaruv asosida qurilgan tamoyillari hisoblanadi. ESG tamoyillariga amal qiladigan kompaniyalar tabiatga yetkaziladigan zararlarni kamaytirish, xodimlar va mijozlarga g'amxo'rlik qilish majburiyatini oladi hamda shaffof va halol ishlaydi.

ESG tushunchasidan ilk bor 2004-yilda BMTning "Who Cares Wins" ("Kim g'amxo'r bo'lsa, g'alaba qozonadi") nomli hisobotida foydalanilgan. Shundan so'ng butun dunyo biznesi nafaqat daromad olish, balki ekologik va ijtimoiy muammolarni hal qilishga ham yordam berishi kerakligini anglab yetdi [2].

Ta'kidlash joizki, butun dunyoda S&P 500 ro'yxatidagi kompaniyalarning 90 foizdan ortig'i ESG hisobotlarini e'lon qiladi. S&P 500 — bu AQShning eng yirik 500 ta kompaniyasi ro'yxati bo'lib, ularning ayrimlari: "Apple", "Microsoft", "Amazon", "Tesla" kabilar dunyo bozorida yo'nalish beruvchi kuch hisoblanadi. ESG esa allaqachon ular uchun me'yoriga aylangan [3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotni amalga oshirish jarayonida ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Ilmiy tahlil davomida bir qancha tadqiqot usullari, ya'ni kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash kabi metodlardan keng foydalanildi. Shu bilan birga, tahlil jarayonlarida analiz va sintez usullari qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Korxonalar ESG indikatorlarini quyidagi tizimlar asosida hisoblaydi:

1. GRI
2. SASB
3. TCFD
4. ISO 14001

ESG indikatorlari korxonaning atrof-muhitga, ijtimoiy mas'uliyati va boshqaruv sifati darajasini o'lchash hamda baholash tizimi hisoblanadi. ESG indikatorlari investorlar uchun korxona moliyaviy riskini baholaydi, korxonaning uzoq muddatli barqarorligini ko'rsatadi, xalqaro standartlar bilan solishtirish imkonini beradi. ESG indikatorlari ekologik samaradorlikning oshishini hamda ekologik risklarning kamayishini, mehnat muhofazasi tizimining samaradorligini, boshqaruvda motivatsiya va ijtimoiy muammolarning mavjudligini yaqqol namoyon



eta oladi. Amaliyotda ESG ko'rsatkichlarini baholashda GRI, SASB, TCFD standartlaridan keng foydalaniladi. Quyida ESG indikatorlarini hisoblash formulalari keltirilgan (1-jadval):

1-jadval. ESG indikatorlarini hisoblash formulalari

№	ESG indikator	Formula	Sharhi
1	Umumiy ESG indeksi	$ESG_{index} = (w_e * E) + (w_s * S) + (w_g * G)$ $w_e + w_s + w_g = 1$	E- atrof-muhit bali S- ijtimoiy bal G- boshqaruv bali $w_e + w_s + w_g$ – og'irlik indeksi
Atrof-muhit ko'rsatkichlarini hisoblash			
2.1	Uglerod intensivligi	CI=	
2.2	Energiya samaradorligi	EE=	
Ijtimoiy ko'rsatkichlari formulalari			
3.1	Mehnat xavfsizligi indeksi	LTIFR=	
3.2	Xodimlar alamhinuvi	TR=	
Boshqaruv ko'rsatkichlari formulalari			
4.1	Mustaqil direktorlar ulushi	IDR=	
4.2	shaffoflik indeksi	TI=	

Yuqoridagi jadvaldan kelib chiqadigan bo'lsak, ESG ko'rsatkichlari korxonaga moliyaviy, strategik, huquqiy va investitsion faoliyatini tahlil qilishga, ularni xalqaro talablar asosida rivojlantirishga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Global miqyosda kompaniyalarni ESG mezonlari asosida baholashda eng nufuzli va keng qo'llaniladigan metodologiyalar qatoriga MSCI ESG Ratings hamda S&P Global Corporate Sustainability Assessment (CSA) tizimi kiradi. MSCI kompaniyalarni sanoat kesimida nisbiy risk ekspozitsiyasi va ushbu risklarni boshqarish qobiliyatiga ko'ra AAA dan CCC gacha reytinglaydi. S&P Global esa CSA asosida moliyaviy jihatdan muhim ESG indikatorlari bo'yicha baholab, eng yuqori natija ko'rsatgan kompaniyalarni Sustainability Yearbook ro'yxatiga kiritadi.

Quyidagi jadvalda 2025–2026-yillar uchun yuqori ESG bahoga ega bo'lgan ayrim global kompaniyalar va ularning reyting maqomi keltirilgan (2-jadval).

2-jadval. Global Top ESG kompaniyalar²

№	Kompaniya	Reyting	Manba	Sabab (mezonlar asosida)
1	Panasonic Holdings Corporation	AAA	MSCI	Uglerod emissiyasini kamaytirish strategiyasi, energiya samarador mahsulotlar, iqlim risklarini boshqarish tizimi
2	Ping An Insurance Group Co., Ltd.	AAA	MSCI	Raqamli boshqaruv tizimi, risk-menejment shaffofligi, ijtimoiy moliyalashtirish dasturlari
3	GEA Group	AAA	MSCI	Sanoat jarayonlarida energiya samaradorligi, suv va chiqindi boshqaruvi, barqaror texnologiyalar
4	PPG Industries, Inc.	AAA	MSCI	Kimyoviy xavfsizlik standartlari, emissiya monitoringi, korporativ boshqaruv mustahkamligi
5	Hitachi, Ltd.	AAA	MSCI	ESG integratsiyalashgan strategik boshqaruv, yashil infratuzilma loyihalari
6	SGS SA	Top 1%	S&P Global	Shaffof audit tizimi, global compliance standartlari, mustaqil boshqaruv tuzilmasi
7	Pirelli & C. S.p.A.	Top 1%	S&P Global	Ta'minot zanjiri monitoringi, ekologik ishlab chiqarish standartlari
8	Tech Mahindra Ltd	Top 5%	S&P Global	IT sektorida ma'lumot xavfsizligi, inson kapitalini rivojlantirish, korporativ etika
9	UPM-Kymmene Corporation	Top 10%	S&P Global	Qayta tiklanuvchi resurslardan foydalanish, bioiqtisodiyot modeli
10	Schneider Electric SE	AAA / Yearbook leader	MSCI / S&P	Energiya boshqaruvi va dekarbonizatsiya bo'yicha global yetakchilik

² MSCI ESG Ratings va S&P Global Sustainability Yearbook 2025 ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi



Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, yuqori ESG reytingga ega kompaniyalar odatda uchta asosiy yo'nalishda tizimli ustunlikka ega: iqlim va ekologik risklarni boshqarish bo'yicha strategik yondashuv, inson kapitali va ta'minot zanjiri barqarorligini ta'minlash hamda mustaqil va shaffof korporativ boshqaruv tizimi. Bunda ESG natijalari faqat ijtimoiy mas'uliyat ko'rsatkichi emas, balki risk-menejment samaradorligi indikatoriga ham aylanmoqda.

MSCI metodologiyasiga ko'ra, AAA reyting kompaniyaning o'z sanoati doirasida ESG risklarini boshqarish qobiliyati yuqori ekanligini anglatadi. S&P Global Sustainability Yearbook ro'yxatiga kirish esa kompaniyaning moliyaviy jihatdan muhim barqarorlik indikatorlari bo'yicha yetakchi ekanini tasdiqlaydi. Demak, yuqori ESG reyting investitsion jozibadorlik, kapital qiymatining pasayishi va uzoq muddatli barqaror o'sish bilan bevosita bog'liq omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, global yetakchi kompaniyalar tajribasi ESG integratsiyasi nafaqat reputatsion ustunlik, balki strategik raqobatbardoshlik omili ekanini ko'rsatadi. Mazkur natijalar rivojlanayotgan mamlakatlar korxonalari uchun ham ESG tamoyillarini institutsional darajada joriy etish zarurligini asoslab beradi.

Ayni paytda mamlakatimizda ESG tamoyillarini kompaniya va boshqaruv organlariga tatbiq etish borasida amaliy qadamlar tashlangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-apreldagi "Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to'g'risida"gi PF-101-son³ Farmonida ESG tamoyillariga kelajakda xalqaro savdo va moliya bozorlariga chiqishda ko'mak beruvchi omil sifatida qaralgan. Shu maqsadda tegishli vazirlik va idoralarga ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv ESG hisobdorlik tizimlarini joriy etish bo'yicha ilg'or xorij tajribasini o'zlashtirish yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish topshirilgan.

"O'zbekneftgaz" kompaniyasi ham o'z faoliyatida ESG tamoyillarini joriy etish bo'yicha ishlarni olib bormoqda. Xususan, aksiyadorlik jamiyati IPO qilish, xalqaro kredit reytingini mustahkamlash maqsadida uzoq va o'rta muddatli strategiya ishlab chiqish va xalqaro reyting agentliklaridan Barqaror rivojlanish reytingini (ESG) olishni rejalashtirmoqda. Buning uchun kompaniya tarkibida ESG standartlarini joriy etish bo'yicha mas'ul mustaqil bo'linma ham tuzilgan.

"O'zbekneftgaz" barqaror rivojlanishni boshqarish tizimini joriy qilishda quyidagi asosiy yo'nalishlarni ilgari surmoqda [9]:

1. Kompaniyaning uglerod izini kamaytirish;
2. Havoni muhofaza qilish;
3. Suv resurslaridan oqilona foydalanish;
4. Sanoat xavfsizligini ta'minlash;
5. Xilma-xillik va teng imkoniyatlar;
6. Xodimlarni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash;
7. Xayriya va ijtimoiy loyihalar;
8. Samarali korporativ boshqaruv.

"O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi ham faoliyatiga ESG tamoyillarini joriy etishga qiziqish bildirmoqda. Tashabbusning maqsadlari ekologik, ijtimoiy va biznes etikasini boshqarish tizimlarini rivojlantirish, ekologik va ijtimoiy xavflarni boshqarish, shu jumladan, eng yaxshi xalqaro standartlar bo'yicha sertifikatlashni takomillashtirish imkoniyatlarini taqdim etishga qaratilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda ESG tamoyillarini joriy qilish ahamiyati shundan iboratki, yaxshilangan reputatsiya, ya'ni barqarorlikka e'tibor qaratish kompaniyalarning ijobiy imijini oshiradi; investorlarni jalb qilish, ya'ni ESG tamoyillariga rioya qilish xorijiy va mahalliy investorlar uchun jozibadorlikni oshiradi; barqaror rivojlanish, ya'ni atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy mas'uliyatni oshirish orqali uzoq muddatli barqarorlikka erishish mumkin.

Mamlakatimiz korxonalarida ESG menejmentini rivojlantirish uchun quyidagi istiqbolli yo'nalishlarni taklif etamiz:

- normativ-huquqiy bazani rivojlantirish, bunda ESG hisobotlari va barqarorlik standartlari milliy darajaga moslangan holda joriy etiladi;
- yashil moliya instrumentlarini kengaytirish, ya'ni yashil obligatsiyalar va ESG-kreditlash mexanizmlari xorijiy andozalar asosida rivojlantiriladi;
- kadrlar salohiyatini oshirish, bunda ESG menejerlar va auditorlar tayyorlanadi, o'qitiladi, ESG savodxonligi oshiriladi;
- raqamli boshqaruv tizimlari, bunda ESG ko'rsatkichlarini monitoring qilish uchun axborot platformalari joriy etilib, axborot almashinuvi hamda ochiqlik siyosati jadallashuviga erishiladi.

3 <https://lex.uz/docs/-5947775>



Yuqorida keltirilgan takliflar amaliyotga tatbiq etilsa, korxonalar boshqaruv samaradorligi oshishiga, xalqaro bozorlarga integratsiya tezlashuviga, xorijiy investorlar jalb qilinishiga erishiladi.

Xulosa qilib aytganda, ESG investitsiyalari shunchaki trend emas, balki korporativ iqtisodiyotdagi paradigmaning o'zgarishidir. Bu kompaniyalarni o'zlarining sayyora va jamiyatga ta'sirini qayta ko'rib chiqishga, shu bilan birga innovatsiyalarni rivojlantirish va raqobatbardoshlikni oshirishga majbur qiladi. ESG tamoyillarini qabul qilgan kompaniyalar va investorlar moliyaviy daromadlarni barqarorlik va mas'uliyat bilan uyg'unlashtirish orqali rivojlanish uchun mustahkam zamin yaratadi. Xulosa qilib aytganda, ekologik, ijtimoiy va boshqaruv yo'nalishlari bo'yicha aniq maqsadlarga qaratilgan strategiyalarni faol amalga oshiradigan va ESG tamoyillarini o'z faoliyatining barcha bosqichlariga integratsiya qilgan korxonalar ESG samaradorligi hamda yashil innovatsion salohiyatni sezilarli darajada oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bunday kompleks integratsiya nafaqat uzoq muddatli barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi va global raqobatbardoshlikni mustahkamlaydi, balki dolzarb ekologik muammolarni hal etishga va ijtimoiy-iqtisodiy tizimning yashil transformatsiyasiga real hissa qo'shadi.

Natijada korxonalar kelajak bozorlarida raqobat ustunligini qo'lga kiritishlari hamda iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy sohalarida muvozanatli va o'zaro foydali natijalarga erishishlari mumkin bo'ladi. Samarali ESG boshqaruvi korxonalarning xavflarni boshqarish, xarajatlarni kamaytirish va atrof-muhitni muhofaza qilishga sodiqligini namoyish etadi, bu shuningdek biznesning mijozlar ehtiyojini qondirish, mehnat standartlari, ijtimoiy adolatsizlik va barqaror investitsiyalar kabi ijtimoiy-iqtisodiy masalalarda qat'iy pozitsiyaga ega ekanligini hamda doimiy o'zgarib turadigan bozor bilan birgalikda faol rivojlanishga tayyor ekanligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni // <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
2. Shuhrat Abdulazizov – "ESG STANDARTLARI VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI", International Journal of Finance and Digitalization, Vol. 3 Issue 01, 2024.
3. Kyleleana Purcell & Ben Vivari. "Sustainable Investing: An ESG Starter Kit for Everyday Investors".
4. NYU Stern. (2021). ESG and Financial Performance.
5. Jeffrey D. Sachs, Guillaume Lafortune, Grayson Fuller and Guilherme Iablonovski "SUSTAINABLE DEVELOPMENT REPORT 2025", page 12.
6. Wang, Z., Hsieh, T. S., & Sarkis, J. (2017). CSR Performance and the Readability of CSR Reports: Too Good to be True? Corporate Social Responsibility and Environmental Management, 25.
7. Kuznetsova G.V. Mas'uliyatli investitsiya va barqaror rivojlanish: global va Rossiya tajribasi // Rossiya tashqi iqtisodiy URL manzili: <https://cyberleninka.ru/>
8. Bessonova E.A., Svejetsentseva K.I. Mintaqaning barqaror rivojlanishi sharoitida iqtisodiy subyektning samaradorligini baholash. Janubi-g'arbiy davlat universiteti axborotnomasi. Seriya: Iqtisodiyot. Sotsiologiya. Menejment. Ta'sischiilar: Janubi-g'arbiy davlat universiteti. ISSN: 2223-1552. 2022. 12-jild. y 4. 119-130-betlar.
9. www.wikipedia.uz
10. www.ung.uz



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>